

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yil.22.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

ISMOILOVA AZIZA ALISHER QIZI

**MEHNAT MUNOSABATLARIDA GENDER TENGLIKNI
TA'MINLASHNING HUQUQIY MUAMMOLARI**

12.00.05 – Mehnat huquqi. Ijtimoiy ta'minot huquqi

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

UDK: 349.222(043.5)(575.1)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy

Ismoilova Aziza Alisher qizi Mehnat munosabatlarida gender tenglikni ta'minlashning huquqiy muammolari	3
Исмаилова Азиза Алишер кизи Правовые вопросы обеспечения гендерного равенства в трудовых отношениях	21
Ismoilova Aziza Alisher qizi Legal issues of ensuring gender equality in labor relations	41
E'lon qilingan ishlar ro'yxati List of published works Список опубликованных работ	45

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMiy
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

ISMOILOVA AZIZA ALISHER QIZI

MEHNAT MUNOSABATLARIDA GENDER TENGLIKNI
TA'MINLASHNING HUQUQIY MUAMMOLARI

12.00.05 – Mehnat huquqi. Ijtimoiy ta'minot huquqi

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2023.4.PhD/Yu1237 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rzymum)) Ilmiy kengashning veb- sahifasida (www.tsul.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Ismoilov Shuhratjon Abdusaminovich
yuridik fanlar doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: Musayev Bekzod Tursunboyevich
yuridik fanlar doktori, professor

Madraximova Guljahon Ro'zimboy qizi
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 19-aprel kuni soat 14.00 daqi maylisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks. (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1385-raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko'chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 4-aprel kuni tarqatildi.
(2025-yil 4-apreldagi 73-son reyestr bayonnomasi).



U. Pyemov

I.R. Rustambekov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

D.V. Xabibullayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, yuridik fanlar
doktori, professor

B.K. Xodjayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash huzuridagi Ilmiy seminar
raisi, yuridik fanlar doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda mehnat munosabalarida gender tenglikni ta'minlash hamon dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Mehnat munosabalarida gender tenglikni ta'minlash inson huquqlarining, ijtimoiy adolatning va iqtisodiy samaradorlikni oshirishning ajralmas qismi hisoblanadi. Xalqaro mehnat tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, "ayollar erkaklarga nisbatan o'rtacha 20% kam ish haqi oladi"¹, bu esa mehnat sohasidagi gender tengsizlikning jiddiy oqibatlaridan dalolat beradi. Gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan xalqaro darajada qabul qilingan huquqiy hujjatlar va tavsiyalarga qaramasdan, ushbu masalaning milliy darajada amalga oshirilishi har bir mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy sharoitlariga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu munosabat bilan ko'plab mamlakatlarda mehnat munosabalarida gender tenglikni ta'minlash muammolarini o'rganish zarurati mavjud.

Jahonda mehnat munosabalarida gender tengsizlikka oid muammolarni hal qilish uchun turli huquqiy mexanizmlar va doktrinalarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Gender tenglikni ta'minlash sohasida formal tenglik nazariyasi (formal equality theory) va moddiy tenglik nazariyasi (substantive equality theory), tabiiy huquq nazariyasi, obyektiv huquq nazariyasi, dual huquq nazariyasi, shuningdek, gender auditi, qonunchilikning gender ekspertizasi, "teng mehnatga teng haq" prinsipini joriy etish sohasidagi tadqiqotlar faol rivojlanmoqda. Gender tenglikni ta'minlashning institutsional mexanizmlarini, shu jumladan gender tenglik masalalari bo'yicha ixtisoslashgan organlar va komissiyalarni tashkil etishni o'rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida gender tenglikni ta'minlash borasida muhim yutuqlarga erishildi, xususan, Konstitutsiya va yangi tahrirdagi Mehnat kodeksida gender tenglik prinsipi mustahkamlandi. Biroq, shunga qaramay, ushbu sohada bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Mamlakatimiz mehnat bozorida erkaklar bandligi 58,8 foizni, ayollar bandligi esa faqat 41,2 foizni tashkil etmoqda². So'nggi yillarda respublikamizda gender tenglikni ta'minlash va ayollarning davlat va jamoat boshqaruvida ishtirokini kengaytirish uchun 3 ta yangi qonun, 6 ta prezident farmoni va qarori, shuningdek hukumatning 18 ta qarori qabul qilindi. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida O'zbekiston Gender tenglik va boshqaruv indeksi – 2024 (GEGI) da 103-o'rindan 52-o'ringa ko'tarilib, beshta asosiy yo'nalishda: boshqaruv, ta'lim, A.T, mehnat, tadbirkorlik va zo'raonlikning oldini olish bo'yicha: ijobiy natijalarga erishdi³.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023), Mehnat kodeksi (2022), "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash" to'g'risida (2019), "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'raonlikdan himoya qilish to'g'risida" (2019) qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PI-87-son "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir

¹ https://focus2030.org/Gender-inequality-around-the-world-in-2024-special-report/?utm_source

² <https://gender.stat.uz/uz/asosiy-ko-rsatkiclar/mehnat>

³ <https://globalgovernanceforum.org/wp-content/uploads/2024/12/Gender-Equality-and-Governance-Index-20242025-A-Critical-Time-for-Women-to-Lead.pdf>

ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi PQ-4235-son "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2022-yil 21-sentabrdagi PQ-376-son "Xotin-qizlar bandligini oshirish va salomatligini mustahkamlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, Oliy Majlis Senatining 2021-yil 28-maydagi SQ-297-IV-son "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi qarori va mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan ustuvor vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot mavzusi maxsus o'rganish obyekti sifatida ko'rib chiqilmagan, ammo ayrim huquqshunos olimlar tomonidan ayollar va oilaviy majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq mehnatni huquqiy tartibga solishning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan.

O'zbekistonda bir qator olimlar ayollar huquqlari, mehnat munosabatlarida tenglik, mehnat sharoitlarini yaxshilash, kamsitishning oldini olish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratganlar. Xususan, A.X. Saidov, T.K. Narbayeva, L.A. Saidova, N.M. Egamberdiyeva, K.R. Aliyeva, F.U. Hamdamova, G.A. Matkarimova, N.J. Yusupova, A.A. Inoyatov, M.A. Usmanova, M.Y. Gasanov, Y. Tursunov, G.D. Sattarova, R.X. Xusainov, Sh.R. Karimov, A. Xabibullayev, B.A. Ismoilov, Sh.A. Ismoilov, D.S. Atajanova, G.A. Matkurbanova, L.U. Rahimqulova, M.A. Raximovlar tomonidan mehnat munosabatlarida tenglikni ta'minlashni huquqiy tartibga solish bilan bog'liq ayrim jihatlar o'rganilgan.

MDH mamlakatlarida N.L. Lyutov, Y.S. Gerasimova, Y.V. Krasnoyaroova, I.A. Avtushko, S.S. Alekseev, M. I. Baytin, S.N. Bratus, D.A. Kerimov, G.N. Komkova, V.I. Kruss, V.V. Lapayeva, R.Z. Livshits, E.A. Lukasheva, F. Lusher, A.V. Malko, M.N. Marchenko, N. I. Matuzov, V.S. Nersesyants va boshqalar mehnat munosabatlarida kamsitish masalalari doirasida ayollar va oilaviy majburiyatlarni bajarayotgan shaxslar huquqlarini tadqiq qilishgan.

Xorijda N. Abdulatif (Avstraliya), M. Alhmoudi (BAA), L.M. Hernandez (Buyuk Britaniya), D. Carrion (Kanada), G. James (Buyuk Britaniya), Harry Arthurs (AQSH) kabi olimlar ayollar va oilaviy majburiyatlarga ega shaxslarning mehnat huquqlari bilan bog'liq tadqiqotlarni olib borishgan⁴. Ushbu izlanishlar gender tenglikni ta'minlashning xalqaro huquqiy asoslarini chuqur o'rganishga qaratilgan.

Yuqorida qayd etilgan mualliflarning mehnat sohasidagi tenglik, xususan, gender tenglik masalalariga qo'shgan hissalarini e'tirof etgan holda shuni ta'kidlash joizki, mavzu doirasidagi ayrim jihatlar hozirga qadar tizimli ilmiy tushuncha va

chuqur nazariy tadqiqotlar bilan to'liq qamrab olinmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejai doirasida olib borilgan "Mehnat qonunchiligini rivojlantirish istiqbollari belgilash va mehnat bozorini huquqiy tartibga solishning ilmiy-nazariy va amaliy muammolarini tadqiq etish" (2022–2026-yy.), "Rivojlangan davlatlar qonunchilik amaliyoti va xalqaro mehnat huquqi yutuqlarini nazariy tadqiq etish asosida olingan natijalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish masalalarini tadqiq etish" (2022–2026-yy.) ilmiy loyihalari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha nazariy va amaliy takliflarni ishlab chiqish orqali mehnat munosabatlarida gender tenglikni ta'minlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

gender tenglik tushunchasining mazmunini ochib berish hamda huquqiy asoslarini o'rganish;

mehnat munosabatlarida tenglik tamoyili, uning mazmuni va ahamiyatini ko'rib chiqish;

gender tenglik tamoyilining mehnat munosabatlariga ta'sirini aniqlash;

gender tenglikni ta'minlashda ayollarga beriladigan kafolatlar doirasini o'rganish;

gender tenglikni ta'minlash bo'yicha xalqaro huquqiy standartlarni o'rganish, ularning milliy mehnat qonunchiligiga implementatsiyasi darajasini baholash;

O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligida ayollar mehnatini huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;

ayollar mehnatini tartibga solishga qaratilgan huquqiy normalarning amaliyotda qo'llanilishini tahlil qilish va ularni himoya qilish bo'yicha choralarning samaradorligini baholash;

gender ekspertizasi tushunchasi va uni o'tkazish tartibini o'rganish, gender tenglikni ta'minlashdagi ahamiyatini tahlil qilish;

mehnat munosabatlarida gender ekspertizasining ahamiyati va uni o'tkazish natijalari bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

mehnat munosabatlarida gender tenglikni ta'minlash bilan bog'liq muammolarni aniqlash va tahlil qilish;

xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rganish;

gender tenglikni ta'minlashda qo'llanilayotgan huquqiy mexanizmlarni ko'rib chiqish.

Tadqiqotning obyektini mehnat munosabatlarida gender tenglikni ta'minlashni huquqiy tartibga solish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar tizimi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti mehnat munosabatlarida gender tenglikni tartibga solishga oid milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy davlatlar tajribasi, xalqaro standartlar, shuningdek, mavzuga oid mehnat huquqi va gender tenglik bo'yicha nazariy qarashlar va yondashuvlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borish jarayonida tarixiy, mantiqiy,

⁴ Ushbu olimlar asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

qiyosiy-huquqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, empirik tadqiqot, statistik ma'lumotlar tahlili, induksiya va deduksiya, analiz va sintez kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishning taqiqlanishi, xususan, jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, qarindoshlarida sudlanganlikning mavjudligi, mulkiy holati va mansab mavqei, yashash joyi, dinga bo'lgan munosabati, e'tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek xodimlarning ishchanlik sifatleri va mehnati natijalari bilan bog'liq bo'lmagan boshqa jihatlariga qarab mehnat va mashg'ulotlar sohasida biror-bir to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita cheklovlar belgilash, xuddi shuningdek biror-bir to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita imtiyozlar berish kamsitish deb hisoblanishi kerakligi asoslab berilgan;

o'n ikki yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq bolaning yoki o'n olti yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolaning ota-onasidan biriga (ota-ona o'mini bosuvchi shaxsga) har yili davomiyligi kamida to'rt kalendar kun bo'lgan haq to'lanadigan qo'shimcha ta'til berilishi kerakligi, bunda ta'til yillik mehnat ta'tiliga qo'shib berilishi yoki ish beruvchi bilan kelishib belgilanadigan davrda ushbu ta'tildan alohida (to'liq yoxud qismlarga bo'lib), lekin faqat tegishli ish yili davomida foydalanilishi mumkinligi, ushbu ta'tilni keyingi ish yiliga ko'chirishga yoki uni pulli kompensatsiya bilan almashtirishga yo'l qo'yilmasligi kerakligi asoslantirilgan;

ikki yoshga to'lmagan bolaning ota-onasidan biriga (vasiysiga) dam olish va ovqatlanish uchun tanaffusdan tashqari bolani ovqatlantirish uchun qo'shimcha tanaffuslar berilishi zarurligi, bu tanaffuslar kamida har uch soatda, har biri o'ttiz minutdan kam bo'lmagan davomiylilikda bo'lishi, ikki yoshga to'lmagan ikki yoki undan ortiq nafar farzandi bo'lgan taqdirda, tanaffusning davomiyligi kamida bir soat qilib belgilanishi, bolani ovqatlantirish uchun tanaffuslar ish vaqtiga kiritilishi va o'rtacha ish haqi bo'yicha haq to'lanishi kerakligi asoslab berilgan;

Xalqaro mehnat tashkilotining "Ishlayotgan erkaklar va ayollar uchun teng munosabatlar va teng imkoniyatlar: oilaviy majburiyatlarga ega xodimlar to'g'risidagi 156-sonli Konvensiya"ni (Jeneva, 1981-yil 23-iyun) ratifikatsiya qilish haqidagi taklif asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mehnat qonunchiligida kamsitish, tazyiq va zo'ravonlik holatlarini taqiqlovchi maxsus normalarni kiritish, oilaviy vazifalarni bajaruvchi shaxslar, jumladan yolg'iz ota-onalar uchun qo'shimcha kafolatlarni belgilash taklif etildi;

tenglik prinsipini kengaytirish va unga "munosabat tengligi" kategoriyasini qo'shish ishlab chiqilgan;

mehnat qonunchiligida "harassment" tushunchasini alohida huquqiy kategoriya sifatida belgilash va unga oid aniq mexanizmlar taklif etilgan;-

ishga qabul qilish jarayonida "Ko'r baholash" (blind recruitment) usulini joriy etish orqali tanlov jarayonining adolatli bo'lishini ta'minlash tavsiya etilgan;

XMT tomonidan qabul qilingan 190-sonli "Tazyiq va zo'ravonlik to'g'risida"gi Konvensiyasini xalqaro standartlar va normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish tavsiya etilgan;

gender kamsitishni oldini olish uchun mehnat nizolarini ko'rib chiqish muddatini qisqartirish taklif etilgan;

ishga qabul qilish jarayonlarida gender tenglikni ta'minlash uchun davlat va xususiy sektorda lavozimlarga ishga qabul qilishda gender kamsitishni kamaytirish maqsadida nomzodlarning ishga qabul qilinishida gender balansni ta'minlash uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan (6-ilovada keltirilgan).

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi uning milliy va xalqaro huquqiy me'yorlarga, rivojlangan mamlakatlar tajribasiga, huquqni qo'llash amaliyoti hamda sotsiologik so'rovnomalarga asoslanganligiga bog'liq. Bundan tashqari, statistik ma'lumotlar tahlili umumlashtirilib, ular tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan. Xulosa, taklif va tavsiyalar tadqiqot jarayonida zaruriy tekshiruvlardan o'tkazilgan va natijalari yetakchi milliy hamda xalqaro nashrlarda chop etilgan. Olingan ma'lumotlar vakolatli organlar tomonidan ma'qullangan va amaliyotga tatbiq etilgan, bu esa tadqiqot natijalarining ishonchliligini va haqqoniyligini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy natijalari mehnat munosabatlarida gender tenglikni ta'minlashga oid ilmiy qarashlarni kengaytiradi. Xususan, mehnat huquqida gender tenglik prinsipi, kamsitish turlarining huquqiy asosi, xodimlarning huquqlarini himoya qilishdagi gender tengligi bo'yicha nazariy va huquqiy jihatlar tadqiq qilingan. Bu ilmiy yondashuv, gender tenglikni mustahkamlash yo'lida mavjud huquqiy muammolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etishga xizmat qiladigan nazariy asoslarni taklif etadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan xulosa va takliflar mehnat munosabatlarida gender tenglikni ta'minlashga doir qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishda, shuningdek, mehnat nizolarini hal etishda kamsitishga yo'l qo'ymaslik uchun huquqni qo'llash amaliyotida foydalanilishi mumkin. Shuningdek, mazkur natijalar O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga gender tenglikka oid o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, jamoa shartnomalari va boshqa mehnat bitimlarida gender tenglikni kafolatlash borasida amaliy tavsiyalar berishda asos bo'ladi.

Mazkur tadqiqot natijalari "Mehnat huquqi", "Mehnat shartnomalarini huquqiy tartibga solish", "Mehnat nizolarini hal etish" kabi modulnlarni o'qitishda, ish beruvchilar, kasaba uyushmalari, xodimlar uchun amaliy qo'llanmalar, shuningdek gender tenglik masalalari bo'yicha sud qarorlarini ishlab chiqishda foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishning taqiqlanishi, xususan, jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, qarindoshlarida sudlanganlikning mavjudligi, mulkiy holati va mansab mavqei, yashash joyi, dinga bo'lgan munosabati, e'tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek xodimlarning ishchanlik sifatleri va mehnati natijalari bilan bog'liq bo'lmagan boshqa jihatlariga qarab mehnat va mashg'ulotlar sohasida biror-bir to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita

cheklovlar belgilash, xuddi shuningdek biror-bir to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita imtiyozlar berish kamsitish deb hisoblanishi kerakligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 28-oktyabrdagi O'RQ-798-son Qonun bilan tasdiqlangan Mehnat kodeksining 4-moddasi ikkinchi qismida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 29-oktabrdagi №3/08-210-son dalolatnoma). Ushbu taklifning joriy etilishi mehnat munosabatlarida gender tenglikni ta'minlashga, kamsitilishning barcha shakllariga qarshi samarali kurashishga imkon yaratgan;

o'n ikki yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq bolaning yoki o'n olti yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolaning ota-onasidan biriga (ota-ona o'rmini bosuvchi shaxsga) har yili davomiyligi kamida to'rt kalendar kun bo'lgan haq to'lanadigan qo'shimcha ta'til berilishi kerakligi, bunda ta'til yillik mehnat ta'tiliga qo'shib berilishi yoki ish beruvchi bilan kelishib belgilanadigan davrda ushbu ta'tildan alohida (to'liq yoxud qismlarga bo'lib), lekin faqat tegishli ish yili davomida foydalanilishi mumkinligi, ushbu ta'tilni keyingi ish yiliga ko'chirishga yoki uni pulli kompensatsiya bilan almashtirishga yo'l qo'yilmasligi kerakligi haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 28-oktyabrdagi O'RQ-798-son Qonun bilan tasdiqlangan Mehnat kodeksining 401-moddasida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 29-oktabrdagi №3/08-210-son dalolatnoma). Ushbu normalar ota-onalarning bolalarni parvarishlashda teng huquq va majburiyatlarga ega ekanligini hamda ularning oilaviy majburiyatlarini birgalikda ado etish imkoniyatini mustahkamlaydi;

ikki yoshga to'lmagan bolaning ota-onasidan biriga (vasiysiga) dam olish va ovqatlanish uchun tanaffusdan tashqari bolani ovqatlantirish uchun qo'shimcha tanaffuslar berilishi zarurligi, bu tanaffuslar kamida har uch soatda, har biri o'ttiz minutdan kam bo'lmagan davomiylikda bo'lishi, ikki yoshga to'lmagan ikki yoki undan ortiq nafar farzandi bo'lgan taqdirda, tanaffusning davomiyligi kamida bir soat qilib belgilanishi, bolani ovqatlantirish uchun tanaffuslar ish vaqtiga kiritilishi va o'rtacha ish haqi bo'yicha haq to'lanishi kerakligi haqidagi takliflari O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 28-oktyabrdagi O'RQ-798-son Qonun bilan tasdiqlangan Mehnat kodeksining 407-moddasi birinchi qismida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 29-oktabrdagi №3/08-210-son dalolatnoma). Ushbu taklifning joriy etilishi mehnat huquqida ota-onalarga teng kafolatlar yaratishda muhim qadam bo'lib, otalarga yosh holasi borligi sababli mehnat-huquqiy himoya imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilgan;

Xalqaro mehnat tashkilotining "Ishlayotgan erkaklar va ayollar uchun teng munosabatlar va teng imkoniyatlar: oilaviy majburiyatlarga ega xodimlar to'g'risida"gi 156-sonli Konvensiyani (Jeneva, 1981-yil 23-iyun) ratifikatsiya qilish haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 19-iyundagi O'RQ-932-son Qonunida o'z aksini topdi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosarining 2024-yil 23-oktabrdagi 02/6-09-77-son

dalolatnoma). Ushbu konvensiyani ratifikatsiyasi qilish O'zbekistonda erkaklar va ayollar uchun mehnatda teng imkoniyatlarni ta'minlashga, oilaviy majburiyatlarga ega xodimlar uchun adolatli sharoitlar yaratishga yordam berdi.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy anjumanda, jumladan 2 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, 5 ta ilmiy maqola (3 ta xorijiy nashrda), 7 ta tezis chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'qqiz paragrafni qamrab olgan uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi 153 betni (foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashqari) tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (dissertatsiya aprotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprotatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Mehnat munosabatlarida gender tenglik va uni ta'minlashning nazariy huquqiy asoslari**" deb nomlanib, unda gender va gender tenglik tushunchasi tahlil qilingan. Tadqiqotchi gender tenglikning asosiy prinsiplari va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini keng yoritgan. Mehnat munosabatlarida gender tenglikni ta'minlashning mazmuni va ahamiyati o'rganilib, ushbu prinsipning jamiyatda teng imkoniyatlar yaratish va adolatni ta'minlashdagi roli ko'rsatilgan. Shuningdek, mehnat munosabatlarida gender tenglik prinsipining qo'llanilishi va uning ahamiyati ham tadqiq etilgan. Gender tenglikni ta'minlash bo'yicha xalqaro huquqiy standartlar va xorijiy tajriba tahlil qilingan, ushbu standartlarni milliy qonunchilikka moslashtirish yo'nalishlari muhokama qilingan.

Gender va gender tenglik tushunchalariga oid turli fikrlar, g'oyalar va yondashuvlar mavjud bo'lib, ko'pincha noto'g'ri talqinlar va noaniqliklar keltirib chiqarmoqda. Gender tenglik tushunchasini ayollar huquqlari yoki feminizm g'oyalari bilan chalkashtirish holatlari uchrab turadi.

Gender so'zi jamiyat tomonidan yaratilgan jinsiy rollar, xulq-atvorlar, imkoniyatlar va majburiyatlarni ifodalovchi tushunchadir. U biologik jins (sex) tushunchasidan farqli o'laroq, jamiyatning ijtimoiy va madaniy omillariga asoslangan. Gender har bir shaxsning jamiyatdagi o'rini belgilashda muhim rol o'ynaydi va u turli madaniyatlar va jamiyatlarda har xil shakllarda namoyon bo'ladi.

Odatda, tilshunoslikda "jins" va "gender" so'zlari bir-birining sinonimi sifatida ishlatilib kelgan. Biroq, bu ikki tushuncha bir-biridan farq qiladi va turli olimlar tomonidan har xil ta'riflar berilgan. Bu ikki tushunchani to'liq tushunish uchun ularni bir-biridan ajratib, har birining qo'llanilish doirasini aniq belgilash muhimdir. Bu farqlar, masalan, sog'liqni saqlash, ta'lim va ish joylarida gender asosida yuzaga keladigan muammolarni hal etishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, bu tushunchalarni sinonim sifatida emas, balki ularning har birining noyob xususiyatlari va qo'llanilish doirasini tushuntirish orqali ishlatish maqsadga muvofiqdir.

Gender tenglik huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarga tayanadi. Huquqiy tenglik barcha fuqarolarning qonun oldida teng huquqlari va teng javobgarligini ta'minlaydi. Ijtimoiy tenglik jinsidan qat'i nazar har bir shaxsning ijtimoiy himoya va turli ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini teng ta'minlashni nazarda tutadi. Iqtisodiy tenglik mehnat bozorida jinsiga qarab kamsitilmasdan, har bir shaxsning o'z mehnati uchun adolatli haq olishini ta'minlashni nazarda tutadi. Ushbu uch omilning birlashishi gender tenglikka erishishda muhim qadam bo'lib, ular adolatli, inkluziv va barqaror jamiyat qurish uchun zarur sharoitlarni yaratadi.

Gender tenglik tushunchasi esa barcha jamiyat hayotining turli jabhalarida, shu jumladan ta'lim, ish joylari, siyosiy va ijtimoiy sohalarida erkaklar va ayollar uchun teng huquqlar, imkoniyatlar va majburiyatlar ta'minlanishini talab qiladi. Bu diskriminatsiyani yo'q qilish va gender adolatsizliklarga imkon bermaydigan muhitni yaratish tushuniladi. Gender tenglikka oid adabiyotlarni tahlili shuni ko'rsatadiki, gender tenglik va ayollar huquqlari tushunchalari atrofida yagona ta'rif yoki yakdil yondashuv hanuzgacha shakllanmagan. Ko'p holatlarda gender tenglik tushunchasi tarkibida ayollarning kamsitilishi yoki ayollar huquqlarining himoyasi masalasida ham fikr yuritilishi urfga kirgan, kam holatlarda erkaklar mavzusiga ahamiyat beriladi. Gender tenglik tushunchasi "ayollar va erkaklar huquqlari tengligi"dan kengroqdir, chunki u faqat huquqlarning teng bo'lishigina emas, balki bu huquqlardan bir xil darajada foydalanish imkoniyatlarini ham o'z ichiga oladi. Bu shuni bildiradiki, gender tenglik nafaqat huquqlarni, balki ayollar va erkaklarning teng sharoitda bu huquqlardan foydalanish imkoniyatlarini ham ta'minlaydi.

Shuningdek, dissertant tomonidan gender tenglik bo'yicha formal tenglik (formal equality) va moddiy tenglik (substantive equality) nazariyasi, tabiiy huquq nazariyasi (natural law theory), obyektiv huquq nazariyasi (objective law theory), dual huquq nazariyasi (dual law theory), ijtimoiy konstruksionizm nazariyasi (social constructionism), feminist nazariya (feminist theory), interseksionallik nazariyasi (intersectionality theory), afzallik nazariyasi (preference theory) kabi nazariyalar va ularning mazmun mohiyati tahlil qilingan. Ushbu nazariyalarning milliy qonunchilikda ifodalanganligi va mehnat munosabatlaridagi gender tenglikning ta'minlanishidagi ta'siri muhokama qilingan.

Mehnat munosabatlarida gender tenglikni ta'minlashda tabiiy huquq nazariyasi va obyektiv huquq nazariyasi bir-birini to'ldiruvchi nazariyalar sifatida muhim

ahamiyatga ega. Dissertant ushbu masalada muvozanatni saqlash zarurligini ta'kidlaydi. Tabiiy huquq nazariyasi nuqtayi nazaridan, ayollarning biologik va ijtimoiy xususiyatlarini, ayniqsa, homiladorlik va onalik bilan bog'liq vaziyatlarda hisobga olish zarur. Bu yondashuv ayollarning alohida ehtiyojlarini himoya qilishga qaratilgan.

Shu bilan birga, obyektiv huquq nazariyasi asosida erkaklar va ayollar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash ham muhimdir. Bu yondashuv kasblarni jins bilan cheklamaslikni, balki har bir shaxsning qobiliyat va malakasiga qarab imkoniyatlar berishni talab qiladi.

Dissertantning fikricha, mehnat munosabatlarida ayolni avtomatik ravishda "zaif taraf" sifatida ko'rish noto'g'ri yondashuvdir. Biroq, mehnat bozorida ayollarga nisbatan ko'proq to'siqlar paydo bo'lishi mumkin (masalan, homiladorlik, bolalarni tarbiyalash mas'uliyati yoki gender stereotiplari). Shu sababli, ayollarning huquqlarini qo'llab-quvvatlash va ularga qo'shimcha kafolatlar taqdim etish muhimdir. Ammo bu chora-tadbirlar ayollarni "zaif taraf" sifatida emas, balki himoya va qo'llab-quvvatlashga ehtiyojmand guruh sifatida ko'rish kerak.

Jinsiy kamsitishga qarshi kurash (against gender discrimination) doktrinasida ayollarning mehnat bozorida erkaklarga qaraganda kamroq maosh olishining oldini olishga qaratilgan bo'lib, gender kamsitishga qarshi kurashda asosiy vosita hisoblanishiga alohida urg'u berilgan.

Rahbar lavozimlarda gender muvozanatini targ'ib qilish doktrinasida (promoting gender balance in leadership positions) tashkilot va muassasalarda rahbarlik lavozimlarida erkaklar va ayollar o'rtasida tenglikni ta'minlashga qaratilgan siyosat xususida so'z yuritilgan.

Shuningdek, ish va oilaviy hayotni muvofiqlashtirishni qo'llab-quvvatlash (supporting work-life balance) doktrinasida, ish joylarida gender tahlili (analysis in the workplace) doktrinasida mazmun mohiyati tahlil qilingan. Jinsiy ta'qiblarni oldini olish (preventing sexual harassment) doktrinasida jinsiy ta'qib gender diskriminatsiyasining bir shakli sifatida tan olinadi va XMT ning "Mehnat sohasidagi zo'ravonlik va ta'qiblariga barham berish to'g'risida"gi 190-sonli Konvensiyasini ratifikatsiya qilish zarurati bayon qilingan.

Dissertantning fikriga ko'ra, mehnat qonunchiligida gender tenglikni ta'minlash ikki bosqichda amalga oshirilishi zarur. Dastlab, "gender-sensitive" qonunchilik yondashuvlarini joriy etish lozim, bu esa mavjud gender tengsizliklarni bartaraf etishga qaratilgan maxsus qoidalarni ishlab chiqishni talab etadi. Ushbu bosqichda qabul qilingan choralar ayollar va erkaklar o'rtasidagi mavjud tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi bosqichda esa uzoq muddatli istiqbolda "gender-neutral" qonunchilik yondashuvini shakllantirish talab etiladi. Bu yondashuv ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni umumiy asosda ta'minlashga yo'naltirilgan. Shunday qilib, "gender-sensitive" va "gender-neutral" qonunchilik yondashuvlari bir-birini to'ldirishi zarur bo'lib, birinchisi mavjud muammolarni hal qilishga, ikkinchisi esa gender tenglikni barqaror ta'minlash uchun asos yaratishga xizmat qiladi.

Mehnat munosabatlarida gender tenglik prinsipi, uning asosiy qoidalari va gender tenglikka oid xalqaro-huquqiy standartlar tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“Mehnat sohasida gender tenglikni ta’minlashning huquqiy mexanizmlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida mehnat sohasida gender tenglikni ta’minlashning huquqiy mexanizmlari, O‘zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligida ayollar mehnatini tartibga solishning xususiyatlari tahlil qilingan. Muallif milliy qonunchilikdagi gender tenglik prinsiplari va ayollar mehnatini tartibga solish mexanizmlarini o‘rgangan. Shuningdek, mehnat qonunchiligida gender tenglikni ta’minlash uchun gender ekspertizasi tizimining amaliy ahamiyati va tatbiqi yoritilgan. Gender tenglikni ta’minlashning institutsional mexanizmlari va ularga oid qoidalar milliy qonunchilikda qanday amalga oshirilayotgani o‘rganilgan.

Tadqiqotchi tomonidan mehnat munosabatlarida gender tenglikni ifodalovchi omillar aniq belgilab chiqilgan va tadqiqot doirasida tahlil qilgan. Ushbu omillar huquqiy tenglik, ijtimoiy tenglik va iqtisodiy tenglikdan iborat bo‘lib, har biri mehnat munosabatlarida gender tenglikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Huquqiy tenglik – barcha shaxslarning mehnat sohasida teng huquqlarga ega bo‘lishini kafolatlashni nazarda tutadi. Ijtimoiy tenglik – mehnat bozoridagi barcha xodimlarning ijtimoiy himoya va kafolatlardan teng foydalanish imkoniyatlarini yaratishga yo‘naltirilgan. Iqtisodiy tenglik – mehnat bozorida jinsiy kamsitishlarni bartaraf etish, har bir shaxsning mehnati uchun adolatli haq olishini ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotda ushbu omillarning har biri mehnat munosabatlarida gender tenglikni ta’minlashning muhim tarkibiy qismlari sifatida ko‘rib chiqildi.

Ushbu bobda ayollar huquqlariga alohida e’tibor qaratilishi lozimligi ta’kidlangan, chunki ayollarning huquqlari inson huquqlarining ajralmas qismidir. Ayollar erkaklar bilan teng huquqlarga ega ekanliklari va hayotning barcha jabhalarida teng ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lishlari, jinsiy kamsitish barcha shakllarda taqiqlanishi zarurligi bo‘yicha fikrlar bildirilgan. Shuningdek, ayollar sog‘liqni saqlash, ta’lim, siyosat va iqtisodiyot sohalarida o‘z huquqlarini to‘liq amalga oshirishi tinchlik va barqaror rivojlanishga hamda inson huquqlarining to‘laqonli amalga oshirilishiga xizmat qilishi ta’kidlangan.

BMT Bosh kotibi Antonio Guterreshning yana bir muhim so‘zlarini qayd etadigan bo‘lsak, u ayollarning iqtisodiyotdagi o‘rniga va ularga nisbatan mavjud nohaqliklarga e’tibor qaratib shunday deydi: “Qayerda siyosiy va ijtimoiy hayotda ayollar faol ishtirok etsa, o‘sha yerda iqtisodiyot rivojlanadi, barqarorlik mustahkamlanadi va fuqarolarning farovonligi yuksaladi”⁵. Bu fikr, aslida, ayollarning mehnati jamiyatning eng muhim, ammo ko‘pincha e’tibordan chetda qoladigan jihatlardan biri ekanini ko‘rsatadi. Ayollar ko‘proq ishlaydigan sohalar – masalan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, uy parvarishi kabi xizmatlar – jamiyat va iqtisodiyotning barqarorligi uchun zarur bo‘lsa-da, kamroq baholanaadi va qadrlanadi. Ushbu sohalaridagi ishlar odatda past maoshli bo‘lib, jamiyatda erkaklar ishlaydigan sohalariga qaraganda iqtisodiy jihatdan kamroq qadrlanishini haqida so‘z yuritilgan.

⁵ <https://news.un.org/ru/story/2024/03/1450267>

So‘nggi yillarda gender tenglikni ta’minlash, ayollarni qo‘llab-quvvatlash va ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi rolini kuchaytirish maqsadida 3 ta qonun, 6 ta farmon va qaror, shuningdek, hukumat tomonidan 18 ta qaror qabul qilingan. Ushbu normativ hujjatlar gender tenglikni mustahkamlash bo‘yicha kompleks huquqiy asos sifatida yoritilib, ayollar huquqlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish va ijtimoiy hayotdagi rolini oshirishga qaratilgan muhim vazifalarni o‘z ichiga olishi bayon etilgan.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, “O‘zbekiston mehnat bozorida ayollar umumiy ishchi kuchining taxminan 47 foizini tashkil etadi. Ammo, ularning iqtisodiy faollik darajasi erkaklarnikidan pastroq bo‘lib, ayollar mehnat bozorida kamroq ishtirok etishadi. Statistika agentligining ma’lumotlariga ko‘ra, ayollarning iqtisodiy faolligi erkaklarnikidan 8,3% ga past, bandlik darajasi esa 9,1% ga kam. Shu bilan birga, ayollarning iqtisodiy nafaolligi erkaklar bilan solishtirganda 17,5% ga yuqoriroq”⁶.

Ayollar ko‘proq sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat kabi sohalarida faoliyat yuritadi, bu sohalarida ular ishehilar orasida katta ulushni egallaydi. Boshqa tomondan, asosan erkaklar faoliyat ko‘rsatadigan qurilish va transport sohalarida ayollarning ulushi nisbatan past bo‘lib, bu sohalarida gender taqriban aniq ko‘rinib turadi.

Shuningdek, ushbu bobda gender-huquqiy ekspertizaning ahamiyati va xorijiy davlatlardagi tajribasi tahlil qilingan. Mehnat munosabatlarida gender tenglikka taalluqli bir qator huquqiy muammolar, jumladan, ish haqi tengligi, lavozimga ko‘tarilishdagi teng imkoniyatlar va ish joyidagi diskriminatsiya holatlari ko‘rib chiqilgan. Gender ekspertizasi ushbu muammolarni aniqlash va hal etish choralarini ishlab chiqishda muhim vosita hisoblanishi haqida fikr yuritilgan.

Rossiyalik olim M. Xegayning ta’kidlashicha, “turli mamlakatlarda o‘tkazilgan tadqiqotlar ayollarning bandligi erkaklarga nisbatan yuqori ekanligini ko‘rsatadi, ammo hatto gender tengligi bo‘yicha rivojlangan davlatlarda ham ayollarning haq to‘lanadigan bandligi erkaklarnikidan pastdir. Bu esa ayollarning mehnat hissasining yetarlicha qadrlanmasligiga, iqtisodiy kamsitishga va erkak – oilaning boquvchisi, ayol – qaram” degan keng tarqalgan stereotipni mustahkamlashga olib keladi”⁷. Shu sababli, huquqiy hujjatlarni gender ekspertizasidan o‘tkazish zarurligi ta’kidlanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Mehnat munosabatlarida gender tenglikni ta’minlash muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari”ga bag‘ishlangan bo‘lib, mehnat munosabatlarida gender tenglikni ta’minlash jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ishlab chiqilgan. Tadqiqotchi gender tenglikka erishishda uchratilgan to‘siqlarni tahlil qilib, ularni bartaraf etish usullarini taqdim etgan hamda xorijiy davlatlar tajribasini milliy amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha takliflarni ilgari surgan. Dissertatsiya mavzusi doirasida ilmiy xulosa va tavsiyalar asosli tarzda bayon etilgan. Shuningdek, gender tenglikni ta’minlash uchun qonunchilikni rivojlantirish istiqbollari va milliy qonunchilikka kiritilishi mumkin bo‘lgan o‘zgartirishlar ham keltirilgan.

Jahon bankining qayd etishicha, global miqyosida ayollarning maoshi erkaklar

⁶ <https://gender.stat.uz/uz/asosiy-ko-rsatkichlar/mehnat> (kirish sanasi: 21.10.2024).

⁷ Хегай М. Н., Денисова А. А. Гендерная статистика. Словарь гендерных терминов. М., –2002. – С. 18.

ish haqining o'rtacha 80 foizini tashkil qiladi. Markaziy Osiyoda esa bu farq yanada katta: Tojikistonda ayollar erkaklar ish haqining qariyb 60 foizi, O'zbekistonda 61 foizi, Qirg'izistonda 75 foizi, Qozog'istonda esa 78 foizi miqdorida maosh oladi⁸. Bu ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, ayollar ko'plab mamlakatlarda hali ham mehnat bozorida teng imkoniyatlarga ega emasliklarini ko'rish mumkin.

Shu bilan birga, mehnat munosabatlarida gender maosh tafovuti ham jiddiy muammo bo'lib, dunyo miqyosida ayollar erkaklarga nisbatan o'rtacha 16% kam daromad oladilar⁹. Ushbu tafovut iqtisodiy tenglikka erishishda sezilarli to'siq bo'layotganligi tahlil qilingan. Tadqiqotda eng so'nggi statistik ma'lumotlar asosida bu farqning saqlanib qolayotgan sohalar, ayollar va erkaklar o'rtasidagi daromad tafovutiga ta'sir etuvchi omillar yuzasidan fikr yuritilgan.

Muallif jinslar bo'yicha ish haqi tafovutini ikki turga ajratadi:

1. Boshqariladigan farqlar (erkaklar va ayollar o'rtasidagi bir xil lavozim, tajriba va malakaga ega xodimlar o'rtasidagi ish haqi nomutanosibligini ifodalaydi, bu turdagi tafovut individual sharoitlarni inobatga olib tahlil qilinadi);

2. Boshqarilmaydigan farqlar (erkaklar va ayollar o'rtasidagi umumiy ish haqi tafovutini ko'rsatadi, bunda barcha tarmoqlar va lavozimlar bo'yicha o'rtacha maoshlar taqqoslanadi).

Dissertant tadqiqotda mehnat munosabatlarida gender tenglikni ta'minlashdagi asosiy muammolarni o'rganib, gender asosidagi maosh tafovutlari, kasb-hunar segregatsiyasi, ishga qabul qilish va lavozimlarga ko'tarilishda jinsiy kamsitish holatlari tahlil qilinib, ish e'lonlaridagi kamsituvchi talablar, shuningdek, nogironlar huquqlarining buzilishi misollarida tahlil qilingan. Shu bilan birga, gender tenglikni ta'minlash va himoyaga muhtoj guruhlar uchun teng imkoniyatlar yaratish bo'yicha milliy va xalqaro me'yorlarga muvofiq tavsiyalar ishlab chiqilgan.

